

SHIFOXONALARDA DORI VOSITALARINING SARFI VA MOLIYAVIY HISOBOTLAR UYG‘UNLIGI

*Xoliqova Mo‘tabar A’zamovna
Farmatsevtika mahsulotlari
xavfsizligi markazi Davlat muassasasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shifoxona tizimida dori vositalarining sarfi bilan moliyaviy hisob-kitoblarning uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Dori vositalarining to‘g‘ri va iqtisodiy asoslangan sarfi nafaqat tibbiy xizmatning sifatini oshiradi, balki moliyaviy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Maqolada dori harakati, real xarajatlar, hisob-kitoblar aniqligi va buxgalteriya bilan farmatsevtika bo‘limi o‘rtasidagi integratsiyalashgan ish yurituv uslublari yoritiladi. Zamonaviy dasturiy ta’minotlar asosida ishslash va avtomatlashtirish orqali qanday qilib dori vositalarining isrofi va moliyaviy noaniqliklarning oldini olish mumkinligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: shifoxona, dori vositalari, sarf hisobi, moliyaviy hisobot, farmatsevtika buxgalteriyasi, avtomatlashtirish, xarajat nazorati, resurs boshqaruvi

Kirish

Sog‘liqi saqlash muassasalarining faoliyati bevosita dori vositalari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning oqilona sarfi muhim iqtisodiy va tibbiy omil hisoblanadi. Shifoxonalarda har bir dori vositasi belgilangan tibbiy ko‘rsatma asosida bemorlarga yoziladi, ularni olib kelish, omborga kirim qilish va iste’molga yo‘naltirish bo‘yicha qat’iy tartib mavjud. Ammo amaliyotda dori vositalari sarfi bilan ularning moliyaviy hisob-kitobi o‘rtasida nomuvofiqliklar kuzatiladi. Bu holatlarning asosiy sabablari sifatida buxgalteriya va farmatsevtika bo‘limlari o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvidagi uzelishlar, avtomatlashtirish darajasining pastligi yoki inson omiliga bog‘liq xatoliklarni ko‘rsatish mumkin. Shu sababli dori vositalarining sarfini moliyaviy hisobotlar bilan uyg‘unlashtirish sog‘liqi saqlash muassasalari uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shifoxonada dori vositalari uchta bosqichda harakatlanadi: xarid qilinadi, omborga kirim qilinadi va bemorga davolash maqsadida sarf etiladi. Ushbu jarayonlarning har biri alohida hujjatlashtiriladi. Moliyaviy hisobda esa har bir preparatning tannarxi, sarf sanasi, qoldig‘i, amortizatsiya qiymati va xarajat turi bo‘yicha ajratilishi kerak. Agar bu jarayonlar orasida tizimli uyg‘unlik bo‘lmasa, moliyaviy hisobotlar aniqligini yo‘qotadi, bu esa byudjet rejalashtirishda, auditda yoki mablag‘lar taqsimotida xatolarga olib keladi.

Ko‘plab muassasalarda farmatsevtika bo‘limi va buxgalteriya bo‘limi alohida ishlaydi, bu esa dori vositalarining real sarfi va hisobga olishda tafovutlarni yuzaga

keltiradi. Masalan, bemorga yozilgan dori real vaqtda ombordan chiqarilgan bo‘lishi mumkin, ammo buxgalteriya tizimiga kech kirim qilinadi yoki umuman kiritilmasligi mumkin. Shu sababli har ikkala bo‘lim o‘rtasida yagona elektron axborot tizimi bo‘lishi zarur. Bu tizim dori vositasining kirimidan tortib, sarfigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni avtomatik tarzda hisoblab boradi. Dasturiy vositalar, masalan, 1C, MedData, ERP yoki lokal HIS tizimlari orqali buxgalteriya va omborxonada ma’lumotlari real vaqt rejimida integratsiyalashgan holatda ishlaydi.

Yana bir muhim jihat – sarflangan dori vositalarining tibbiy hujjatlar bilan bog‘liqligi. Har bir bemorga yozilgan dori reestri va iste’mol qilingan dorilar elektron tibbiy kartada qayd etilishi zarur. Agar bu tizim ombor va buxgalteriya hisobi bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, xarajatlar izsiz ketishi mumkin. Shu bois har bir dori vositasining harakati izchil, hujjatlashtirilgan va nazorat ostida bo‘lishi talab qilinadi.

Shifoxonalarda dori vositalarining yaroqlilik muddatiga e’tibor berilmasa, ularning hisobdan o‘tkazilishi jarayoni noto‘g‘ri yuritiladi. Moliyaviy hisobotlarda esa muddati o‘tgan dorilar hali ham qoldiq sifatida turadi. Bunday vaziyatlar muassasaning moliyaviy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va dori vositalarining isrof bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli real qoldiq, moddiy javobgar shaxslarning har kuni asosida olib boradigan nazorati va buxgalterlik aktlari orqali hisobotlarni moslashtirib borish zarur.

Avtomatlashdirish faqat buxgalteriya yondashuviga emas, balki menejment qarorlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Statistik tahlillar orqali qaysi dorilar eng ko‘p sarf qilinayotganini, qaysilari kam harakat qilayotganini aniqlash va kelgusi xaridlar rejasiga, budjet bo‘linmalari o‘rtasidagi taqsimotlar aynan shu asosda belgilanadi. Moliyaviy hisobotlar dori vositalarining real sarfi bilan uyg‘unlashtirilsa, sog‘liqni saqlash muassasasi moliyaviy jihatdan ham barqaror bo‘ladi.

Shifoxonalarda dori vositalarining sarfi va buxgalteriya hisobotlari uyg‘un bo‘lishi nafaqat moliyaviy aniqlik, balki umumiyligida boshqaruv sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy hisobotlarda keltirilgan xarajatlar real sarflangan dorilar bilan to‘g‘ri kelmasa, muassasa ichki audit tizimida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Bunday tafovutlar davlat tekshiruvlari vaqtida aniqlansa, shifoxonaning moliyaviy intizomiga, shuningdek, boshqaruv jamoasining ishonchliliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kundagi muammolardan yana biri — bu hisob-kitobning qisman raqamli, qisman qo‘lda yuritilishi. Ko‘p holatlarda buxgalteriya tizimlari bilan dori vositalarining ombor tizimlari bir-biriga integratsiyalanganmagan bo‘ladi. Natijada ma’lumotlar bir necha marotaba ko‘chiriladi, inson omili ta’siriga tushadi va xatoliklar yuzaga keladi. Bu muammolarning oldini olish uchun yagona, avtomatlashdirilgan platforma zarur bo‘ladi, bunda tibbiy retseptdan tortib, dori berilgunga qadar bo‘lgan

butun jarayonlar kuzatuv ostida bo‘ladi va ularning moliyaviy ifodasi tizimda avtomatik shakllantiriladi.

Shifoxonalarda mavjud dori vositalari bo‘yicha aniq zaxira darajasini bilmaslik ham moliyaviy hisobni noto‘g‘ri yuritishga olib keladi. Aksariyat muassasalarda dori zaxirasi real talabga asoslanmagan holda shakllantiriladi, bu esa ortiqcha xarajatlar va ortiqcha ombor maydoni band bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Real vaqt asosida ishlaydigan inventarizatsiya tizimi yordamida omborda mavjud barcha dorilar hajmi, muddati, narxi, partiyasi va harakat tarixi bo‘yicha to‘liq ma’lumot olish mumkin. Bu orqali xarid va xarajatlarni maqbullashtirish, moliyaviy hisobotlar bilan uyg‘unlashtirish osonlashadi.

Moliyaviy hisobotlar va dori vositalari sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlikda nazorat mexanizmlarining roli ham beqiyosdir. Ichki audit guruhi har oyda dori vositalarining sarfi bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari va real foydalanish orasida solishtirma tahlillar olib borishi lozim. Bunda aniqlangan tafovutlar bo‘yicha sabablar o‘rganiladi: noto‘g‘ri hujjatlashtirishmi, noto‘liq yozuvlarmi, yoki dori omborda qolgan bo‘lishiga qaramay sarf qilingan deb ko‘rsatilgan holatlarmi. Har bir bunday tafovutga mas’uliyatli yondashuv muassasa ishonchligini oshiradi.

Bundan tashqari, moliyaviy rejalashtirish ham dori vositalari sarfi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Har bir shifoxona yillik budgetini tuzishda dori xarajatlari bo‘yicha aniq prognozga tayanadi. Agar bu prognoz noto‘g‘ri tuzilsa, kelgusida budget taqsimoti nomuvofiq bo‘ladi. Statistika, ilgari qo‘llanilgan dori miqdori, bemor oqimi, mavsumiy kasalliklar tahlili asosida tuzilgan sarf prognozlari esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Yana bir muhim masala — inson omili. Ayni paytda, ayrim tibbiyot muassasalarida dori vositalarining sarfi qog‘oz shaklida yuritiladi, bu esa noto‘g‘ri yozuvlar, takroriy ma’lumotlar, qo‘lda tuzilgan hujjatlarda yo‘qotishlar kabi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi. Bu xatoliklar esa moliyaviy hisobga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, noto‘g‘ri sanada yozilgan sarf hujjati boshqa oydagи hisobotda hisobga olinadi, bu esa bir oyda ortiqcha xarajat, boshqasida esa kam ko‘rsatilgan xarajat sifatida aks etadi. Avtomatlashtirilgan tizimlarda esa bu kabi xatoliklar minimal darajada bo‘ladi.

Dori vositalarining real vaqtda nazorat qilinishi, ularning sarfi, partiyasi, yaroqlilik muddati va tannarxining buxgalteriya tizimi bilan sinxron yuritilishi shifoxona rahbariyatiga to‘liq nazorat va moliyaviy tahlil imkonini beradi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash boshqaruv organlari uchun ham ishonchli va tahliliy hisobotlar taqdim etish osonlashadi. Bu esa davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytiradi.

Shifoxonalarda bu tizimni samarali yo‘lga qo‘yish uchun kasbiy malaka oshirish, xodimlar o‘rtasida funksional javobgarlikni aniq belgilash, farmatsevtika va

buxgalteriya xodimlari o'rtaida uzviy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Faoliyatda har bir sarflangan vosita — bu muayyan qiymatdagi byudjet mablag'i, degan tushunchani har bir xodim chuqur anglashi kerak.

Bugungi kunda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida elektron tibbiy hisob yuritish bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu orqali barcha harakatlar — retsept yozish, omborga kirish, sarf, hisobdan chiqarish, yaroqlilik muddati tugagan mahsulotlar haqida avtomatik ma'lumotlar almashinuvi yuzaga keladi. Natijada farmatsevtika bo'limi, omborxona, tibbiyot xodimi va buxgalteriya bo'limi o'rtaida yagona ma'lumot maydoni shakllanadi. Bu esa dori vositalarining isrofi, noto'g'ri xarajat, moliyaviy yo'qotishlarning oldini oladi.

Xulosa

Shifoxonalarda dori vositalarining sarfi bilan moliyaviy hisobotlarning uyg'unligi — bu samarali boshqaruv, tibbiy xavfsizlik va moliyaviy aniqlik uchun zaruriy omildir. Buning uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish, buxgalteriya va farmatsevtika bo'limlari o'rtaida integratsiyalashgan ish yurituv joriy etish, real vaqt asosidagi monitoringni yo'lga qo'yish lozim. Sarflangan dori vositalarining hujjatlashtirilgan, shaffof va izchil hisobini yuritish orqali sog'liqni saqlash tizimi barqarorligini oshirish, moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish va dori ta'minotida ishonchlilikni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy veb-sayti – www.minzdrav.uz
2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) dori vositalari harakati bo'yicha yo'riqnomalari – www.who.int
3. R. Jo'rayev, "Tibbiy tashkilotlarda dori vositalari harakati va buxgalteriya nazorati", Toshkent, 2022
4. ISO 13485: Tibbiy mahsulotlar uchun sifat menejmenti tizimlari
5. A. Hasanov, "Farmatsevtika menejmenti asoslari", Ilm ziyo nashriyoti, 2021